

JOHILYAT DAVRI SHOIRLARI VA ULARNING JAMIYATDAGI ROLI

Mohizarbegim ERGASHEVA

TDSHU, arab filologiyasi yo‘nalishi

2-bosqich (kunduzgi) arab-engliz 1-guruh talabasi

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. M. Ziyavuddinova

Annotatsiya: Ushbu maqolada johiliyat davri shoirlarining hayoti, ijodi va adabiy merosi tahlil etiladi. Ularning she’riyati arab madaniyati va tarixining muhim qismi bo‘lib, qabilaviy urf-odatlar, jasorat, mehmondo‘stlik va muhabbat mavzularini qamrab oladi. Maqolada ushbu davrning eng mashhur shoirlari, ularning badiiy uslubi hamda Islom kelishi bilan arab she’riyatiga bo‘lgan ta’siri yoritilgan.

Kalit so‘zlar: johiliyat davri, muallaqa, Imrul Qays, Labid ibn Robia’, Antara ibn Shaddod, Tarafa, Zuxayr ibn Abi Sulmo, Al Xaris ibn Xilliz, Amr ibn Kulsum, islam, qasida, „To‘xtab turing! Yig‘lab olaylik!“ qasidasi, badaviy hayot, Avs, Bakr, Tag‘lib qabilalari, shoirlar.

Johiliyat davri – Islomdan oldingi arab jamiyatining o‘ziga xos madaniy, ijtimoiy va siyosiy hayoti bilan ajralib turadigan davridir. Qadimgi Arabiston tarixi arab adabiyotida „Johiliya davri“ nomini olgan. Bu so‘z lug‘aviy jihatdan „jaholat“, „omilik“, „nodonlik“ ma’nolarini anglatsa-da, tarixiy atama sifatida u Arabiston tarixining islomdan oldingi davriga nisbatan ishlataladi.¹ Johiliya davri, odatda, Iso (a.s.) va Muhammad (a.s.) o‘rtasidagi payg‘ambarsiz o‘tgan davr sifatida tushuniladi. Qur’onda bu tushuncha bir necha suralarda uchraydi, "j-h-l" o‘zakli so‘zlar esa, asosan, Madina suralarida kelgan bo‘lib, bu atama hijratdan oldingi (milodiy 622-yil) davrga tegishli ekanini ko‘rsatadi. Johiliya tushunchasining shakllanishiga asosiy sabab – o‘sha davrdagi arab jamiyatida zo‘ravonlik,adolatsizlik va qattiqqo‘llik hukm surganidir. Islomdan avval qasos olish, qiz bolalarni tiriklay ko‘mish, begona qabila vakillariga dushman sifatida munosabatda bo‘lish kabi illatlar keng tarqalgan edi.

¹ A.A.Hasanov. Ilk islam tarixidan ma’ruzalar. O‘quv qo‘llanma. T., 2015.

Shuning uchun keyingi avlod bu davrni haqli ravishda "Johiliya davri" deb atagan. Bu davr arab qabilalarining mustahkam urug'chilik tuzumi asosida yashagan, urush va adovatlar keng tarqalgan, yozma madaniyat esa deyarli rivojlanmagan davr edi. Johiliyat arablarining tarixiy merosi og'zaki adabiyot orqali saqlanib kelgan bo'lib, aynan shu jarayonda shoirlar va ularning ijodi muhim o'rinn tutgan. Johiliyat shoirlari nafaqat adabiy ijodkor, balki qabila ruhining ifodalovchilari, tarixchilar va targ'ibotchilar edi. Ularning she'rlari qabilaviy faxr, qahramonlik, jasorat va shonshuhratni madh etish bilan bir qatorda, dushmanlarni hajv qilish, urushlarga da'vat etish va siyosiy ta'sir o'tkazish vositasi bo'lib xizmat qilgan. Ularning badiiy kuchi shunchalik katta edi-ki, birgina yaxshi yoki yomon she'r qabilaning obro'sini yuksaltirishi yoki tushirishi mumkin bo'lgan. Islomgacha bo'lgan davr shoirlarining ijodi V-VII asrlarda gullab-yashnadi. Bunga urug'-qabilachilik tizimi o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi: arab she'rlarida o'ziga xos yorqinlik, obrazlilik va hissiyot ko'zga tashlanadi. Arab tilshunoslari ularning she'rlarini yig'ish jarayonida asarlarga alohida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatishgani badaviy arab adabiyotining qanchalar yuqori o'rinda ekanligini isbotlaydi. Qadimgi arab badaviy shoirlari og'zaki ijod qilishgan, ularning she'rlari minglab she'rlarni yod bilgan roviylar vositasida tildan tilga o'tib, hozirgacha yetib kelgan. Shuni aytish kerakki, og'izdan og'izga o'tish jarayonida she'rlar sezilarli darajada o'zgarishga uchragan. Lekin ulardagi qat'iy an'anaviylik saqlab qolingga.

Afsuski, johiliyat davri arab shoirlari ijodining katta qismi butunlay yo'qolib ketgan. Asarlar arab shevasida (lahja) yaratilgan bo'lsa ham, johiliyat davri she'riyati tili umumiyidir. Bunga sabab arablarning sahrolarda ko'chmanchi tarzda kezib hayot kechirishgani va turli qabilalar bilan yaxshi munosabatda bo'lganligidir. Buning natijasida arablarning tili (aniqrog'i, lahjalar) va madaniyati o'zaro aralashib, uyg'unlashgan.

Quyida islomgacha bo'lgan eng mashhur shoirlar keltiriladi:

1. Imrul Qays;

2. Tarafa;
3. Zuxayr ibn Abi Sulmo;
4. Al Xaris ibn Xilliz;
5. Amr ibn Kulsum;
6. Antara ibn Shaddod;
7. Labid ibn Robia.

Ularning ijodlari dastlab VIII asrda roviy Xammod tomonidan to‘plam holiga keltirilgan va u „Al-Mu’allaqot” deb nomlanadi. („Mu’allaqot” so‘zining tarjimasi „Shodaga terilgan durlar” deganidir.) Qadimgi arab shoirlarining asarlari faqat shu to‘plam bilan chekhanib qolmadi, balki keyingi asrlarda Mufaddal ad-Dabbiy, Abu Tammom va al-Buxturiy kabi tilshunos va shoirlar tomonidan devon tartib qilindi. O‘rtta asr arablari islomgacha bo‘lgan davrdagi eng mashhur shoir deb Imrul Qaysni hisoblaydilar.

Imrul Qays² Asad qabilasining zodagon oilasidan bo‘lgan. Uning otasi shu qabilaning yetakchisi, shafqatsiz va adolatsiz kimsa bo‘lgan va taqdiri o‘z qabiladoshlari tomonidan o‘ldirilish bilan yakunlangan. Shoir o‘z bolaligi haqida yozar ekan, uning yoshligi rohat-farog‘atda o‘tgani va o‘zi kabi qabila boshliqlarining farzandlari uchun odatdagi badaviy hayot ularga begona ekanligini ta’kidlaydi. U kichik yoshidan she’rlar yoza boshlagan bo‘lsa-da, otasi bunga qarshilik qiladi. Oqibatda, Imrul Qays o‘z qabilasidan haydaladi. Bundan she’r yozish zodagon oila vakillari uchun nomunosib bo‘lgan degan xulosa kelib chiqadi. Agar johiliyat davri shoirlarining hayot yo‘llariga e’tibor berilsa, ularning deyarli barchasi turli sabablarga ko‘ra o‘z qabilalaridan quvilib, darbadarlikda yurib, sahrodan o‘zlariga panoh, ko‘ngillariga tasalli qidirishgandek ko‘rinadi go‘yo. Imrul Qays ham aynan shunday: qabilasini tark etganidan so‘ng o‘zi kabi quvg‘in qilingan insonlardan iborat guruhga qo‘shiladi va ular bilan birga sargardonlikda bir sahrodan boshqa bir sahroga kezib yuradi, shundagina zodagon oilaning bu farzandi haqiqiy badaviy hayotning oftobida

² Imru’ al-Qais Junduh bin Hujr al-Kindi (Arabic: إِمْرُوُ الْقَيْسُ جُنْدُحُ ابْنُ حَجْرٍ الْكِنْدِيُّ, Latin: Imru' al-Qays Junduḥ ibn Ḥujr al-Kindiyy)

toblanadi. Bu uning ruhiyatiga ta'sir etmay qolmagan. Uning keyinchalik yozgan she'rlarida yuqoridagi holat o'z ifodasini topgan. Arab adabiyotida Imrul Qays o'ziga xos xususiyatlarga ega qasida yozganligi alohida e'tirof etiladi. Uning eng mashhur asari „To'xtab turing! Yig'lab olaylik!” nomli qasidasidir. Bu asar VI asrda yaratilgan va arablar uchun o'sha davrdagi eng zo'r durdona asar hisoblanadi. Qasida shu darajada yuksak baholanganki, boshqa biror she'riy asar haqida so'ralganda ular: „Bu „To'xtab turing! Yig'lab olaylik!” qasidasidan ham go'zalroqmi?” yoki „Bu „To'xtab turing! Yig'lab olaylik!” qasidasidan ham mashhurroqmi?” – deyishar ekan.³ Quyida shu muallaqaning bir parchasini ko'rsak:

To 'xtanglar, yorim manzilin eslab, biroz yig'laylik.

Duxul va Xovmala Tudih-u Miqrot vodiylari aro.

Yorim izlarin olib ketmabdi,

Janubi-shimoldan esgan ul sabo.⁴

Odatda, qasidalar sevikli yor – mahbubaga bag'ishlab yaratilgan. Imrul Qays ham bu she'rini mahbubasi Uneyza bilan uchrashuvi xotirasiga yozgan. Uchrashuv joyiga ko'ra „Darat Juljul kuni” nomini olgan bu kun, o'rta asrlar arab sharhlovchilarining guvohlik berishicha, quyidagi voqeal bilan tarixda qolgan:

Uneyzaga ko'ngil qo'ygan Imrul Qays, mahbubasi bilan uchrashish uchun ayyorlik qiladi. Qabila ko'chayotgan paytda u qabiladoshlaridan ortda qolib, Darat Juljuldagi cho'milish havzasini yonida yashirinadi. Uneyza boshqa ayollar bilan suvgaga tushganida shoир qirg'oqdagi kiyimlarni yig'ib olib, yoniga o'tiradi va cho'milayotganlar suvdan chiqqan taqdirdagina ularni berishini aytadi. Uzoq ikkilanishdan so'ng ayollar bo'ysunishga majbur bo'ladilar. Ular kiyimlarini

³ M.Ziyavuddinova. O'r ganilayotgan mamlakat adabiyoti. O'quv qo'llanma.T., 2021.

⁴ M.Ziyavuddinova. O'r ganilayotgan mamlakat adabiyoti. O'quv qo'llanma.T., 2021.

olishgach, Imrul Qaysni yengiltaklikda ayblaydilar, biroq saxiy shoir oz tuyasini so‘yib, ularni sharob hamda qovurilgan go‘sht bilan siylaydi.

Shoiring ishidan ta’sirlangan ayollar tuyasining egarini qabila qo‘nog‘iga ozlari ko‘tarib boradilar.⁵ Imrul Qays she’riyatining bosh mavzusini muhabbat va tabiat mavzulari egallaydi. U sahroda yashagani uchun Arabiston cho‘llari, umuman, badaviylar turmush tarzini o‘ziga xos usulda tasvirlaydi. Tabiat manzaralarini go‘yoki „jonlantiradi“. Shu jihatidan u arab adabiyotida peyzaj lirkasining yorqin vakili hisoblanadi. Imrul Qays – shubhasiz qadimgi arab she’riyatidagi eng mashhur siymolardan biri. Uning ijodida arab shoirlari butun mumtoz davr mobaynida asoslanib kelgan arab she’riyatining usul va shakllarini birinchi marta ko‘ramiz. Imrul Qaysga islomgacha bo‘lgan davrdagi shoirlar (Zuxeyr, Tarafa) ham, mumtoz davr shoirlari (Umar ibn Abu Rabi’a, Abu Nuvas, al-Buxturiy va boshqalar) ham taqlid qilganlar.⁶

To‘plamga she’rlari kiritilgan yana bir shoir Tarafa⁷ edi. U ham hayotining katta qismini quvg‘inda o‘tkazgan va VI asr oxirida vafot etgan. U haqidagi ma’lumotlar deyarli ko‘zga tashlanmaydi. Manbalarda aytishicha, u Bahrayndagi Bakr nomli qabilaning vakili bo‘lgan. Bolaligi to‘kin-sochinlikda o‘tgan, ammo otasining vafotidan so‘ng hammasi o‘zgargan. Amakilarini uni o‘z qaramog‘iga olishgan. Keyinchalik esa Tarafani „qichima toshgan, qatron surkalgan tuya singari“⁸ quvib yuboradilar. Chunki u qabilaning mol-mulkini o‘z aysh-ishrati yo‘lida sarflab yuborgandi. Tarafa uzoq muddat sahroda daydib yuradi, lekin oxir-oqibat o‘z qabilasiga qaytib keladi, qarindoshlariga bo‘ysunib, o‘z akasi Ma’badga cho‘ponlik qiladi. Keyinchalik bir necha saroylarda shoirlilik qiladi-yu, saroy shoiri lavozimini o‘ziga ep ko‘rmaydi. Xira podshohi va ba’zi a’yonlarni hajv qiladi. Oqibatda, Tag‘lib qabilasidan bo‘lgan bir noib tomonidan o‘ldirtiriladi. Tarafaning ijodida qasidalari alohida o‘rin tutadi. U, asosan, akasi Ma’badning zulmlariga javob sifatida akasiga

⁵ M.Ziyavuddinova. O’rganilayotgan mamlakat adabiyoti. O’quv qo’llanma.T., 2021.

⁶ M.Ziyavuddinova. O’rganilayotgan mamlakat adabiyoti. O’quv qo’llanma.T., 2021.

⁷ Tarafa (Arabic: طرفة بن العبد بن سفيان بن سعد أبو عمرو البكري الوانلي / Tarafah ibn al-‘Abd ibn Sufyān ibn Sa’d Abū ‘Amr al-Bakrī al-Wā’ilī; 543–569)

⁸ M.Ziyavuddinova. O’rganilayotgan mamlakat adabiyoti. O’quv qo’llanma.T., 2021.

ta'nali ohangda murojaat etadi. Qolaversa, o'zi va qabilasini ulug'laydi, o'z qabilasini doimo himoya qiladi. Tarafa qabila boshliqlarining ishlaridan norozi bo'ladi xolos.

Tarafa o'zining aniq va yorqin qiyoslari bilan ham ajralib turadi. Masalan, u bir she'rida sahroda borayotgan tuyalarni ustidagi *mahofalari*⁹ bilan qayiqlarga o'xshatadi, mahbubasini ohuga, uning jilmayishini esa „toza va nam qumdan iborat tepalikda o'suvchi“ yovvoyi moychechak guliga qiyoslaydi. Arablarda Tarafa johiliyat davrining eng ulug' va mahoratlari shoirlaridan biri deb ta'kidlansa-da, ular uning she'rilarini ortiqcha dag'allik, me'yorsizlik va yetuklikdan yiroqlikda ayplashgan.

Zuxeyr ibn Abu Sulma¹⁰ (530-627) – Zubiyan va Avs qabilalari o'rtasidagi urush davrining mashhur shoirlaridan biri bo'lib, tinchlikparvarligi bilan ajralib turadi. U G'atafan qabilasidan bo'lib, she'riyatni Aus ibn Hujradan o'rgangan. Zuxeyrning asarlari qadimgi arab she'riyatining eng yaxshi namunalaridan hisoblanadi. Uning ijodi qabilaviy ruh va tinchlikni targ'ib qilishga yo'naltirilgan. Shoir Abs va Zubiyan qabilalarini yarashtirishga intilgan, chunki o'z qabilasining zaiflashishini nizolar bilan bog'lagan. U Daxis va al-Gabra urushi haqidagi she'rleri bilan mashhur bo'lib, bu urush ot poygasi bahonasida boshlangan va 40 yil davom etgan. Zuxeyrning asarlarida madhiya markaziy o'rin tutadi, lekin u kuchli hukmdorlarni emas, qabilasining farovonligi uchun xizmat qilgan insonlarni ulug'laydi. Uning Muallaqasida Zubiyan qabilasining ikki taniqli shaxsi – Xarim va Xaris tinchlik uchun fidokorona xizmat qilgani madh etilgan. Shoir urushni qoralab, uni qabilalarni yo'q qiluvchi ofat sifatida tasvirlaydi. Zuxeyr qasidalarida hissiyotdan ko'ra aql ustuvorlik qiladi. Uning tili aniq, lo'nda va kuzatuvchanlikka asoslangan. U tavsif san'atida mohir bo'lib, jonli va harakatga boy tasvirlar yaratgan. Masalan, u yovvoyi eshakni shunday aniq tasvirlaydiki, hatto lablaridagi yashil o't izigacha eslatib o'tadi. Uning metaforalari ham betakror bo'lib, Xarimning ko'z yoshlarini suv to'la chelaklarga, ularni

⁹ Mahofa – bu tuya yuk ko'tarishda yoki yo'lovchi tashishda ishlataladigan maxsus qoplama yoki yopinchiqdir. U quyoshdan, shamoldan va changdan himoya qilish uchun ishlataladi. Ba'zan mahofa tuyaning ustiga o'rnatiladigan maxsus yelim yoki charm qoplamali to'rva shaklida bo'lib, ichida yo'lovchilar yoki yuk joylashtiriladi. Bu ayniqsa, Arabiston va Markaziy Osiyonning cho'l hududlarida keng qo'llanilgan.

¹⁰ Zuhayr bin Abī Sulmā (Arabic: زهير بن أبي سلمى; c. 520 – c. 609)

ko‘tarayotgan tuya va irmoqlarga qiyoslaydi. O‘rtalashtirishlari Zuxeyrni islomgacha bo‘lgan davrning eng buyuk shoirlaridan biri deb bilganlar.

VI asr oxiridagi islomgacha bo‘lgan badaviylik yo‘nalishidagi she’riyatga muallaqalar mualliflari – al-Xaris ibn Xilliz¹¹ va Amr ibn Kulsumning¹² ijodi tegishli. Ularning nomi Bakr va Tag‘lib qabilalari o‘rtasidagi uzoq davom etgan urushlar bilan bog‘liq. Bu nizolardan biri al-Basusa tuyasi tufayli boshlangan urush bo‘lib, Xira hukmdorining aralashuvi bilan yakun topgan. Ammo tez orada qabilalar yana to‘qnash kelgan va hakam sifatida Xira podshohi Amr ibn Hindga murojaat qilishgan. Ayrim taxminlarga ko‘ra, shoirlar o‘z muallaqalarini bahslashayotgan tomonlarning nutqi sifatida o‘qib bergenlar. Amr ibn Kulsum o‘z qabilasi – Tag‘liblarni ulug‘lab, Xira hukmdoriga qarshi keskin chiqish qilgan, bu esa qabila boshliqlariga yoqmagan. Al-Xaris ibn Xilliz esa Bakr qabilasining ustunligini asoslab, hakamning donoligini ulug‘lagan. Natijada, hukmdor bahsni Bakr qabilasi foydasiga hal qilgan. Biroq bu bahsning natijasi oldindan siyosiy sabablar bilan belgilangan bo‘lib, Xira hukmdorlari Tag‘lib qabilasining qudratidan xavfsirashgan.

Al-Xaris ibn Xillizning Muallaqasi an’anaviy kompozitsiyaga ega. Unda shoir o‘z qabilasining aybsizligini ta’kidlab, Bakr qabilasini ulug‘laydi, ularning g‘alabalari va Xira hukmdorlari bilan aloqalariga to‘xtaladi. Qasida Xira hukmdori bilan do‘stlikni targ‘ib qilish bilan yakunlanadi. Al-Xaris ibn Xillizning muallaqasi arab notiqlik san’atining eng qadimiy namunalaridan biri hisoblanadi. Unda hikoya qilish unsurlari kuchli bo‘lib, shoir o‘z qabiladoshlarini ulug‘laydi va tarixiy voqealarni badiiy bezak bilan yoritadi. Uning she’rlarida tilning o‘ziga xos nozikligi va jangovar ohang uyg‘unlashgan.

Amr ibn Kulsum tag‘lib qabilasining manfaatlarini himoya qilgan mashhur shoir va jangchi edi. U Bakr va Tag‘lib qabilalari o‘rtasidagi uzoq davom etgan urushda faol qatnashgan. Rivoyatlarga ko‘ra, Xira hukmdori Amr ibn Hind unga va onasiga

¹¹ Al-Ḥārith ibn Ḥilliza al-Yashkurī (Arabic: الحارث بن حليفة اليشكري)

¹² Amr ibn Kulthūm ibn Mālik ibn ‘Attāb ’Abū Al-’Aswad al-Tagħħibi (Arabic: عمرو بن كلثوم)

hurmatsizlik qilganidan so‘ng, Amr ibn Kulsum hukmdorni o‘ldirib, qabiladoshlari bilan qochib yashiringan. Ushbu urush aslida Shimoliy va Markaziy Arabiston ustidan hukmronlik uchun olib borilgan edi. Amr ibn Kulsumning eng mashhur asari – Muallaqa bo‘lib, u ikki qismidan iborat. Birinchi qismida sharob madh etilib, an’anaviy nasib (mahbubaga sog‘inch) va faxr (o‘z qabilasini ulug‘lash) tasvirlanadi. Ikkinci qism esa Tag‘lib qabilasining Bakr va Xiraga qarshi kurashi kuchaygan davrda yozilgan bo‘lib, unda shoir o‘z xalqining jasoratini madh etadi. Uning she’rlari ritorika va bo‘rttirishlarga boy bo‘lsa-da, nihoyatda jarangdor bo‘lib, urush shovqini va chavandozlarning dupurini eshittiradi. Shoir johiliyat davri she’riyatining asosiy vositalaridan – qiyoslash, metafora va epitetlardan mohirona foydalangan. Muallaqa islomgacha bo‘lgan davrda juda mashhur bo‘lib, ayniqsa, tag‘libiyalar tomonidan qadrlangan.

Qasidalari to‘plamga kiritilgan yana bir mashhur shoir Antara ibn Shaddod¹³(VI–VII asrlar) hisoblanadi. U islomgacha bo‘lgan arab shoirlari orasida alohida o‘rin tutadi. U nafaqat shoir, balki jasur jangchi sifatida ham mashhur bo‘lgan. Avs qabilasiga mansub bo‘lib, onasi habashiy kanizak bo‘lgani uchun dastlab qul hisoblangan. Biroq, urushda ko‘rsatgan jasorati tufayli ozodlikka erishgan va harbiy sarkardaga aylangan. Antara, asosan, lirik shoir bo‘lib, uning she’rlari Ablaga bo‘lgan muhabbat, qabiladoshlariningadolatsiz munosabati va o‘z jasoratini madh etishga bag‘ishlangan. Uning eng mashhur asari – muallaqasi. Ushbu qasida Ablaning uyi haqidagi xotiralar bilan boshlanadi, keyin uning go‘zalligi va shoirning unga bo‘lgan muhabbati tasvirlanadi. Shoir o‘zining jangchi sifatidagi fazilatlarini madh etar ekan, muallaqasini quyidagi misralar bilan yakunlaydi:

Jangni ko ‘rgan har qanday odam senga xabar beradi

Men qo ‘qqisdan jangga kiraman,

¹³ Antarah ibn Shaddad al-Absi (Arabic: ‘عَنْتَرَةُ بْنُ شَدَّادٍ الْعَبْسِيُّ), AD 525–608

Biroq u yerda o 'zimni o 'ljadan tutib turaman.¹⁴

Antaraning she'rlari badiiy jihatdan ifodali bo'lib, unda hayotning turli manzaralari tasvirlangan: mahbubasi haqida yozganda – nazokat, tuyani ta'riflashda – uning yugurish tovushi, jangni tasvirlaganda – qurollarning sharaqlashi aks etadi. Antara obrazi arab adabiyotida afsonaviy darajaga ko'tarilgan. O'rta asr manbalarida u yengilmas jangchi, mard askar va ezgulik himoyachisi sifatida tasvirlanadi. U badaviy an'analarini aks ettiruvchi ideal qahramonga aylangan.

Va nihoyat, she'rlari „Al-muallaqot”dan o'rin olgan so'nggi shoir Labid ibn Robia¹⁵ dir. Islomgacha bo'lgan davrning «oxirgi badaviy shoiri» sifatida tanilgan Labid (taxm. 560–661) muallaqa mualliflaridan biri edi. U uzoq umr ko'rgan bo'lsada, asosan, islomdan oldingi davrda ijod qilgan. Rivoyatlarga ko'ra, islomni qabul qilgach, she'riyatdan voz kechgan. Labidning eng mashhur asari – muallaqasi bo'lib, o'rta asr arablar tomonidan eng yaxshi qasidalar qatoriga kiritilgan. Unda an'anaviy tuzilish kuzatiladi: tashlab ketilgan qo'noq izlarini ko'rib his qilgan tuyg'ular, mahbubasining xotirasi, tuyani tasvirlash, kiyik ovi manzaralari hamda shoir va qabilasining madh etilishi. Labid haqida uning devonida quyidagicha ma'lumot هو لبيد بن ربيعة بن مالك بن جعفر بن كلاب بن ربيعة بن عامر بن صعصعة بن معاوية .. وينتهي ،، . نسبة عند مضر . أبوه جواد كريم لقب : بربيعة المفترين، وأمه تامرة بنت زنبع العبسية، إحدى بنات جذيمة بن رواحة.

واسم لبيد مشتق من قولنا ليد بالمكان إذا مكث به وأقام، ولم يذكر أن له ولداً سوى بنتين، وله أخ أكبر منه ضرساً اسمه : (أربد). نشأ شاعرنا لبيد يتيمًا في إثر مقتل والده يوم ذي علق، فتكفله أعمامه، وكان إذاك يبلغ التاسعة من عمره، ولقي لديهم من الرخاء والسعفة في العيش ما لم يتوقعه لنفسه. ولم يدم له ذلك حيث وقع بين أسرتين منبني عامر خلاف شتت شملهما .

وحينما بلغ لبيد من الشباب ذروة اندفع إلى مجالسة الملوك ومنادتهم حباً بما هم فيه وطموماً لنيل حظوة لديهم، فكان أول من قصد النعمان بن منذر وله في مجالسته قصص نقلتها كتب الأدب. ويبدو أن لبيداً في هذه الفترة

¹⁴ M.Ziyavuddinova. O'rganilayotgan mamlakat adabiyoti. O'quv qo'llanma. T., 2021.

¹⁵ Abū Aqīl Labīd ibn Rabī'a ibn Mālik al-'Āmirī (Arabic: أبُو عَقِيلٍ لَبِيدٌ بْنُ رَبِيعَةَ بْنُ مَالِكٍ الْعَامِرِيٍّ; 505[1] – c. 661)

من شبابه كان مقبلاً على لذائف الحياة، يصيب منها ما أراد إلى أن ظهر الإسلام، فقد تبدل حياته رأساً على عقب“¹⁶ وكان من خف للإسلام، فدخل فيه وناصره وهاجر وحسن إسلامه.

Tarjimasi: „U Labid ibn Rabi'a ibn Molik ibn Ja'far ibn Kilob ibn Rabi'a ibn Omer ibn Sa'sa ibn Muoviyadir. Nasabi Mudarga borib taqaladi. Uning otasi saxiy va Rabiyat al-Muqtarin nomi bilan mashhur, onasi esa Jusayma ibn Ravohaning qizlaridan Tamira binti Zinba al-Absiyyadir. Labid nomi bir joyda «labd» so'zidan olingan bo'lib, u erda qolish va yashashni anglatadi. Uning ikkita qizidan boshqa farzandi borligi va “Arbad” ismli akasi borligi aytilmagan. Shoirimiz Labid Zhu Alaq kuni otasi o'ldirilgandan keyin yetim qolgan. Amakilari uni to‘qqiz yoshida parvarish qilishdi va u ulardan o‘zi kutmagan farovonlik va yengillikni topdi. Bu uzoqqa cho‘zilmadi, chunki Banu Amer qabilasining ikki oilasi o‘rtasida nizo kelib, ularni tarqab ketdi. Labid yoshligining cho‘qqisiga yetganida, o‘z mavqeini yaxshi ko‘rib, podshohlar bilan do‘splashishga shoshildi. U Nu'mon ibn Munzirni birinchi bo'lib qidirgan va u bilan o'tirgani haqidagi hikoyalari adabiyot kitoblarida keltirilgan. Aftidan, Labid yoshligining shu davrida islom paydo bo‘lgunga qadar hayotning zavq-shavqlaridan bahramand bo‘lishga, xohlagan narsasidan bahramand bo‘lishga intilganga o‘xshaydi. Uning hayoti butunlay o‘zgarib, Islomni qabul qilganlardan bo‘lib, unga kirib, uni qo‘llab-quvvatladi, hijrat qildi va yaxshi musulmon bo‘ldi.“

Johiliyat davri shoirlarining nafaqat o‘z ijodi, balki tarjimai holi ham alohida mavzudir. Bu tarjimai hollarda bir xususiyat ko‘zga tashlanadi: shoirlar shaxsiyati ustura (asotir) tusini olib, hatto ertaksimon syujet shakliga ham kiradi. Shoirlar obrazi aniq bir inson sifatini o‘zida mujassamlashtiradi: Imru'l-Qays – saxiy, ayollarni sevuvchi, aysh-ishratga berilgan; Zuqayr Nabiga – qabila hokimlari, donishmandlaridan; Antara – jasur, pahlavon, botir; Jamil va Majnun – baxti yurishmagan oshiqlar; Tarafa – sarguzashtlarni yaxshi ko‘radi; Hotam at-Toiy – cheksiz saxiylik ramzi.¹⁷

¹⁶ Hamdu Tumas. Labid ibn Robia'ning devoni. (كتاب ديوان لبيد بن ربيعة). Darul-ma'rifat. Bayrut. Liviya.

¹⁷ Arab adabiyoti 2. Monografiya. TDSHU. T., 2016.

Xulosa o‘rnida aytish kerakki, johiliyat davri shoirlari arab adabiyotining shakllanishida muhim o‘rin tutgan. Ularning asarlari nafaqat badiiy mahorati, balki tarixiy voqealarni yoritishdagi roli bilan ham e’tiborga loyiqidir. Ushbu shoirlar o‘z qabilalarining hurmatini qozonib, urush va tinchlik, sadoqat va xiyonat kabi mavzularni teran yoritgan. Islomning kelishi bilan bu she’riyat yangicha mazmun kasb etgan bo‘lsa-da, johiliyat davrining ijodiy yutuqlari arab adabiyotining bebaho qismi sifatida saqlanib qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. M.Ziyavuddinova. O‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti. O‘quv qo‘llanma.T., 2021.
2. A.A.Hasanov. Ilk islom tarixidan ma’ruzalar. O‘quv qo‘llanma. T ., 2015.
3. Hamdu Tumas . Labid ibn Robia’ning devoni (كتاب ديوان لبيد بن ربيعة) Darul-ma’rifat. Bayrut. Liviya.
4. Arab adabiyoti 2. Monografiya. TDSHU. T ., 2016.
5. <https://www.wikipedia.org/>